



XALQ DEPUTATLARI O‘ZBEKISTON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-aprel

VI-81-40-11-161-K/24

O‘zbekiston tumani

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashi .

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida joriy yilning 1-fevralidan 4-aprelga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha “Ochiq budget” axborot portalida “ENG KO‘P” ovoz olib, avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan 15 ta takliflarni moliyalashtirish uchun “Tashabbusli budget” jamg‘armasidan jami 20 400.0 mln so‘m mablag‘ ajratilishi to‘g‘risidagi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Sattorovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin;

Ishchi guruh xulosalariga asosan ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgan va faol ishtirok etib, “Ochiq budget” axborot portalida “ENG KO‘P” ovoz olib, avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar to‘liq moliyalashtirib berilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilli ro‘yxat” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltiriladigan tuman budjeti mablagʻlari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida jamlangan boʻlib, ushbu mablagʻlarni boshqa maqsadlarga sarflanishiga yoʻl qoʻyilmasin.

2. Tasdiqlangan Manzilli roʻyxat asosida:

-Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (M.Sattorov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini taʼminlash maqsadida buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablagʻ manbasi boʻyicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” maxsus hisobraqamlari ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (X.Komilov) Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablagʻlar yoʻnaltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablagʻlarni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar boʻyicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga maʼlumot kiritib borilishini taʼminlasin.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (D.Jabborov) va tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (M.Sattorov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “gʻolib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar boʻyicha maʼlumotlarni “Ochiq budget” axborot portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini taʼminlasin.

4. Tuman budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlarining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablagʻlarning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya aʼzolari shaxsan javobgarligi eslatib oʻtilsin.

5. Mazkur bayon ijrosini taʼminlash va nazorat qilish komissiya aʼzolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



YULDASHEV
SHERZOD
AKRAMOVICH

Xalq deputatlari O'zbekiston tumani Kengashining
2024-yil 20-apreldagi
VI-81-40-11-161-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O'zbekiston tumani bo'yicha 2024-yil 1-bosqichida g'olib bo'lgan loyihalarni Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

№	Tadbirning xos (ID) raqami	Obyekt aniq manzili	Balandsa saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
O'zbekiston tumani jami					20 400 000 000	
1	032319356011	Okmachit MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Oqmachit MFYning 3.0 km ichki yo'llarini asfaltlash	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
2	032325580011	Kumbosti MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	O'zbekiston tumani Qumbosti MFY Soy bo'yi ko'chasi 0.975 km, Toshminora ko'chasi 0.685 km, Shaxmatchilar ko'chasi 0.490 km, Yangiobod ko'chasi 0.260 km, Jar ko'chasi 1.155 km jami 3.565 km ichki ko'chalarini asfalt qoplama yotqizish ishlari.	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
3	032321560011	Kumbosti MFY	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Qumbosti mahallasida mavjud barcha ko'chalarga beton stolba ko'mish, 3 ta transformator o'rnatish, yopiq sim (kabel) tortish, barcha beton stolbalarga ko'cha chiroqlari o'rnatish so'raladi.	1 360 000 000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
4	032323044011	Tinchlik MFY	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Tinchlik MFY Tepa tovush, Qashqar va Telov mahallalari elektr ta'minotini yaxshilash (TPlar vatemir-beton tayanchlar o'rnatish hamda elektr tarmoqlari tortish)	1 360 000 000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
5	032303046011	Ko'l elash MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Ko'l elash mfy da joylashgan 30 - umumiy o'rta talim maktabiga 120 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan maktab o'quvchilarini 2 smenali o'qitishni 1 smeraliga o'tkazish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini kech tushmasdan uylariga yetib olishlariga sharoit yaratish.	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
6	032315881011	Qaynar MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Qaynar MFYning ichki yo'llarini asfaltlash.	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
7	032307964011	Farovon kelajak MFY	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Farovon kelajak MFY Tog'ay ko'chasining elektr tizimini yaxshilash (TP, temir-beton tayanchlar o'rnatish va tarmoq tortish)	1 360 000 000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
8	032301340011	Qirqketmon MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	16-maktabga qo'shimcha bino qurish	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
9	032299396011	Yakkatut MFY	Tibbiyot birlashmasi	73-Oilaviy poliklinika binosi 1987 y qurilgan, ta'mirlanib, eshik romlar akfa eshik romlarga almashtirish kerak, 6 oehkoli xojatxona qurish, binoni rekonstruksiya qilish lozim	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
10	032317171011	Rajabgardi MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	44-DMTT binolarini joriy ta'mirlash	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
11	032319484011	O'qchi Tuman MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	O'qchi tuman MFYda joylashgan 58-maktabga 120 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi qurish.	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)

12	032309226011	Qulibek MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	21-sonli umumta'lim maktabiga qo'shimcha 120 o'rinli o'quv binosi qurish va quyosh paneli o'rnatish	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS)
----	--------------	-------------	---------------------------------------	---	---------------	--

№	Tadbirning xos (ID) raqami	Ob'ekt aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirishi lozim bo'lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
13	032321153011	Zinasha MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	27-DMTni joriy ta'mirlash.	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
14	032309929011	Qaynarbuloq MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Kaynarbulok MFY Elash maxallasi kuchalari: 1- Soybuyi 520 metr, 2- Yangiobod 460 metr, 3- Bunyodkor 650 metr, 4- Uzumzor 530 metr, 5- Bekbotir 500 metr, 6- Kaynarbulok 320 metr, 7- Toshkuprik 130 metr, 8- Oydinbulok 140 metr. Jami 3250 metr.	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
15	032309578011	Dashtxasan MFY	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	37-DMTT mavjud binolarini joriy ta'mirlash	1 360 000 000	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)